

## SALAM VA ISTISNO' SHARTNOMALARINING QIYOSIY TAHLILI

**Irgasheva Gulbahor**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti  
ORCID: 0009-0009-0955-664X  
[irgashevagulbahor77@gmail.com](mailto:irgashevagulbahor77@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada salam va istisno' shartnomalarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Jumladan, qiyosiy tahlilda shartnomalarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning amaliyotda qo'llanilishi va iqtisodiy jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, mushoraka-istisno'-ijaraga asoslangan davlat xususiy-sheriklik (DXSh) infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish tuzilmasi va bosqichlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlari:** islomiy moliyalashtirish mexanizmi, salam, istisno', parallel salam, AAOIFI, islomiy investitsiyalar, savdo shartnomalari.

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КОНТРАКТОВ САЛАМ И ИСТИСНА

**Иргашева Гульбахор**

Ташкентский государственный экономический университет,  
Университет точных и социальных наук

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о теоретических основах, организационной и управленческой системах инвестиционных контрактов в исламской финансовой системе, таких как салам и истисна'а, а также о механизмах их применения на практике. Также в статье проводится анализ сходств и различий этих торговых контрактов, а также подробно рассматриваются направления использования параллельного салама.

**Ключевые слова:** исламские финансовые механизмы, салам, истисна'а, параллельный салам, AAOIFI, исламские инвестиции, торговые контракты.

## COMPARATIVE ANALYSIS OF SALAM AND ISTISNA CONTRACTS

**Irgasheva Gulbakhor**

Tashkent State University of Economics,  
University of Exact and Social Sciences

**Abstract.** This article provides a comparative analysis of salam and istisna' contracts. In particular, the comparative analysis examines the specific features of the contracts, their practical application and economic aspects. It also provides information on the structure and stages of financing public-private partnership (PPP) infrastructure projects based on musharaka-istisna-ijara.

**Keywords:** islamic financing mechanism, salam, istisna, parallel salam, AAOIFI, Islamic investments, trade contracts.

### **Kirish.**

Bugungi globallashuv jarayonida jahon amaliyotidan ko'rish mumkinki, har qanday mamlakat o'z iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qiladi, negaki bu jarayonlarsiz mamlakat rivojlana olmaydi. Ishlab chiqarish jarayonlarini yuqori sur'atda rivojlantirish, zamonaviy texnika-texnologiyalar asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar raqobatbardoshligini har tomonlama oshirish, mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash, eksport ko'lamini sezilarli darajada oshirish, bu eng avvalo mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun jalb qilinadigan investitsiyalar oqimi orqali ta'minlanadi.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda ichki va xorijiy investitsiyalarni samarali jalb qilish, ayniqsa muhimdir. Shuningdek, bugungi kunda, deyarli ko'plab mamlakatlarda keng rivojlanib borayotgan islom iqtisodiyoti tamoyillari asosidagi ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilishga doir qiziqishlar yildan yilga oshib bormoqda.

Ko'plab mamlakatlar islom iqtisodiyoti tamoyillari asosidagi investitsiyalarni jalb qilishmoqda va bu bilan yaxshi samaraga erishilmoqda. Dastavval, "Islom iqtisodiyoti" atamasi o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab iqtisodiy adabiyotlarda ishlatilib kelingan, ko'plab olimlar islom iqtisodiyotiga ta'riflar bergan va ushbu ta'riflarini birlashtiradigan nuqtasi sifatida shariat tamoyillariga tayanuvchi iqtisodiy tizim sifatida namoyon bo'lishidadir.

Xususan, Monzer Kahf "Rohat-farog'atga erishish maqsadida Alloh tomonidan ishonib berilgan mulkni, ya'ni resurslarni boshqaruvchi musulmonning axloqi to'g'risidagi ta'limotga asoslanadi" deya tariflagan. Shuningdek, bu atamaga muallif tomonidan ham quyidagicha ta'rif berilgan: Islom iqtisodiyoti - Alloh tomonidan berilgan moddiy va nomoddiy resurslarni boshqarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni adolatsizlikka yo'l qo'ymaydigan shariat tamoyillari asosida tartibga solish tizimidir.

Islom tamoyillariga asoslangan moliyalashtirishning an'anaviy moliya tizimidan bir qator farqli jihatlari mavjud:

-islomiy moliya foyda va zararni bo'lishish hamda real aktivlarga asoslangan moliyalashtirishni o'zida namoyon qiladi. Boshqacha qilib aytganda, islomiy moliyalashtirish sherikchilikka, hamkorlikka asoslangan. Bunda islomiy banklar mijoz talabi bo'yicha obyektini qurib berishi, asbob-uskunalar, tovar, xomashyolar sotib olib berishi yoki ularni ijaraga berishi mumkin. Bundan ko'rish mumkin, islomiy moliyalashtirish asosida savdo amaliyoti yotadi.

-pul esa islomiy moliyada muomala vositasi sifatida ko'riladi, ya'ni pulni o'zini foiz evaziga qarz sifatida berish taqiqlanadi.

1960-yillarda Misrda dastlabki islom bank tizimining paydo bo'lishi olamshumul voqealik emas edi, ammo yarim asrdan ko'proq vaqt davomida ushbu soha barqaror rivojlanib kelmoqda. So'nggi yillarda Islom moliya tizimi tushunchasi ko'plab mamlakatlar moliyachilarining so'z boyligidan mustahkam o'rin oldi. Darhaqiqat, turli mamlakatlarda, hattoki aksariyat musulmon bo'lmagan mamlakatlarda ham, jumladan AQSh va Buyuk Britaniyada, ushbu moliyaviy institut an'anaviy bank xizmatlariga muqobil moliyalash tizimi sifatida barqaror rivojlanmoqda.

Ushbu tadqiqot ishimizda islom moliyasida savdo shartnomalari salam va istisno'ning asosiy mazmun-mohiyati, ularni amaliyotda qo'llash tamoyillari, ikki shartnoma o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlari tadqiq etilgan.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Islom moliyasi bugungi kunda butun dunyoda juda tez sur'atda rivojlanib borayotgan jahon moliya sanoatining yetakchi qismi sifatida e'tirof etilib, eng ilg'or soha sifatida deyarli barcha mamlakatlarda qo'llanilib kelinmoqda. Shuningdek, islom moliyasiga doir aholi orasida xabardorlik darajasini oshirish maqsadida ko'plab xorijiy, MDH mamlakatlari va o'zbek olimlari va tadqiqotchilari bu sohaga doir o'z izlanishlarini olib borishgan va uning natijalarini o'z tadqiqotlarida bayon etishgan.

Xususan, Muhammad Ayub (2007) islom moliyasi sohasiga doir o'z izlanishlarini olib borgan, uning "Islom moliyasini tushunish" nomli tadqiqot ishida islomiy moliya vositalari va ularning qo'llanilish jihatlari va xususiyatlari to'liq yoritib berilib, islomiy investitsiyalarning mamlakatlar iqtisodiyoti rivojidadagi roli tushintirib berilgan.

Bundan tashqari, Umer Chapra (2000) o'zining "Islamic Banking and Finance: The Challenge of the 21st Century" nomli tadqiqot ishida islomiy moliyaning asosiy tamoyillarini, uning iqtisodiy tizimlarga ta'sirini chuqur tahlil qilgan. Shuningdek, ushbu kitobida muallif islomiy moliyaning iqtisodiy barqarorlik, adolat va tenglik kabi asosiy tamoyillariga e'tibor qaratib, islomiy bankchilik va moliya tizimining qanday ishlashini, uning zamonaviy bozorlar bilan qanday integratsiyalashishi masalalari ko'rib chiqiladi.

Shayx Muhammad Taqi Usmoniy (2011) o'zining "Islom moliyasiga kirish" kitobini yozib, ushbu kitobda asosan islom banklari, nobank moliya institutlari tomonidan qo'llaniladigan moliyalashtirishning turli usul va vositalariga doir ma'lumotlar berilib, islom moliyasining qoidalari, tamoyillari va uslublarini bayon etgan. Jumladan, islomiy investitsiya shartnomalari salam va istisno'ning mohiyati, amaliyotda ishlash sxemasi va ularga doir barcha masalalar batafsil yoritib berilgan.

Obaid Saif Al Zaabi (2010) "Salam Contract in Islamic Law: A Survey" nomli tadqiqotida salam shartnomasining asosiy prinsiplari, shartlari va holatlarini, Islomiy huquq maktablari tomonidan muhokama qilingan holda batafsil taqdim etadi. Shuningdek, shartnoma haqida fikr yuritayotgan olimlar o'rtasidagi kelishuv va farqlanish nuqtalarini qayd etadi va ushbu nazariyalarni Islomiy moliyalashtirishda salam shartnomasini qo'llash bilan bog'liq ba'zi oqibatlarini ko'rsatadi.

Abdul Karim (2018) "The Role of Islamic Finance in Achieving Financial Stability in Developing Economies" tadqiqot ishida islomiy moliya tizimining rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni haqida tadqiqot o'tkazib, islomiy moliya tizimining asosiy tamoyillari va ularning rivojlanayotgan mamlakatlardagi ijobiy ta'siri haqida ma'lumot beradi hamda islomiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida o'rni va ahamiyati yoritib berilgan.

Monzer Kahf (2005) ham islom iqtisodiyoti va moliyasiga doir sermahsul xizmat ko'rsatayotgan yetuk olimlardan biri hisoblanadi. Uning "Islamic Capital Markets: A comparative approach" deb nomlangan kitobida islomiy kapital bozorlarining zamonaviy amaliyotlari, ularning ta'siri va rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Kitobda shuningdek, islomiy investitsiya prinsiplari va ularning moliya tizimidagi o'rni ko'rib chiqiladi.

Mohammed Imad Ali, Ikramur Rahman Falahi (2014) o'zlarining "Islamic banking and finance: principles and practices" nomli tadqiqot ishlarida islom moliyasi va bankchiligi shuningdek, islomiy investitsiyalar va ularning mamlakatlar iqtisodiyoti rivojidadagi roli tushuntirib berilgan.

Yuqorida tilga olingan olimlarning barchasi islomiy moliya sohasidagi muhim nazariy - amaliy tadqiqotlarga hissa qo'shishgan va keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan. Ularning ishlarida islomiy bankchilik va moliya tizimlarining iqtisodiy samaradorligi, barqarorlik, inkluzivlik va rivojlanayotgan iqtisodiyotlarga qo'shgan hissasi kabi muhim masalalar tahlil qilingan.

O'zbekistonda ham bu sohada qiziqish ancha yuqori bo'lib, tadqiqot ishlari va izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchi olimlar ham yildan yilga ko'payib bormoqda. Ular o'z izlanishlarining natijalarini e'lon qilib borishlari asosida aholi orasida islom moliyasi borasidagi xabardorlik darajasini oshishiga ma'lum darajada hissa qo'shib kelishmoqda.

Xususan, Ruhiddin Zayniddinov (2023) "O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik (DXSH) loyihalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish" nomli tadqiqot ishida ijara shartnomasidan davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini moliyalashtirishda foydalanish imkoniyatlarini O'zbekiston misolida ko'rib chiqqan.

Mazkur tadqiqotimiz yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy ishlarini qo'llab-quvvatlab, salam va istisno' shartnomalarining farqli va o'xshash xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lishni maqsad qilganlarga bir manba bo'lib xizmat qiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolamizni ilmiy jihatdan keng darajada tahlil qilishda sifat yondashuvidan foydalanildi. Shuningdek, salam va istisno' islomiy moliyalashtirish vositalarini tadqiq qilishda induksiya va deduksiya usullari, grafik tasvirlash kabi tadqiqot usullaridan samarali ravishda foydalanildi. Bundan tashqari, salam va istisno' moliyalashtirish vositalari o'rtasidagi farqlarni tahlil qilishda qiyosiy tahlil qilishdan ham foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Shariatda savdoni amalga oshirishning uchta asosiy shartlari mavjud va ularning bajarilishini talab etadi:

1. Savdo amaliyoti vaqtida tovar mavjud bo'lishi kerak, mavjud bo'lmagan tovarlarni sotish shariatda ta'qiqlanadi;
2. Sotuvchi savdo tovarining egalik huquqiga ega bo'lishi kerak. Agar tovar mavjud bo'lsayu, lekin sotuvchi unga egalik qilmasa, tovarni sota olmaydi;
3. Tovar sotuvchining egaligiga bo'lishi yetarli emas, mulk jismoniy yoki konstruktiv ravishda o'tgan bo'lishi kerak. Agar sotuvchi tovarga egalik qilsayu, lekin o'ziga yoki vakili orqali uni o'zlashtirmagan bo'lsa, u uni sota olmaydi.

Shariatda ba'zi turdagi savdo bitimlari borki, yuqoridagi shartlar mavjud bo'lmasa ham, savdo amaliyotlarini amalga oshirish mumkin. Ushbu savdo amaliyotiga salam va istisno' bitimlarini kiritish mumkin. Bugungi tadqiqot ishimizda ushbu ikki savdo turining mohiyati, ularning bir-biridan farqli jihatlari va moliyalashtirish maqsadida qanday ishlatilishi tushuntiriladi.

Salam - bu qadimiy kelajakdagi shartnoma shakli bo'lib, unda narx oldindan to'lanadi va tovarlar kelajakda yetkazib berilishi to'g'risida shartnoma tuziladi. Ushbu bitimda tomonlar tovarlarning ma'lum miqdori va sifatini belgilab, tovarlarni yetkazib berish uchun aniq vaqtni belgilaydilar. Salamda hech qanday foyda olinmaydi, chunki bu qarzga aylanishi mumkin.

Salam shartnomasini M. Usmani quyigicha ta'riflaydi: Sotuvchi o'ziga xos biron bir tovarni, to'la va bir martalik bo'nakli to'lovlar evaziga kelgusida xaridorga yetkazib berish majburiyatini oladigan xariddir. Ushbu sotuvning asosiy maqsadi - hosil yig'ilgunga qadar oilasini ta'minlash va ekinlarni yetishtirish uchun pulga ehtiyojmand mayda fermerlarning ehtiyojini qondirishdir. Shariat qoidalariga ko'ra, yuqorida ta'kidlaganimizdek, sotuv tovari mavjud bo'lishi, sotuvchining egaligiga, shuningdek, konstruktiv va jismoniy mulki bo'lishi lozim. Lekin, salam shartnomasini payg'ambarimiz Muhammad (S.A.V) ma'lum shartlar asosida ruxsat berganlar. Ribo ta'qiqlangani uchun dehqonlar o'zlarining oilalarini boqish va faoliyatlarini amalga oshirish uchun foizli qarzlar olish imkoniyatiga ega emas edilar. Shuning uchun, ularga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini oldindan sotishga ruxsat berildi.

Shuningdek, Arabiston savdogarlari boshqa joylarga tovarlarni eksport qilish va o'z yurtlariga esa tovarlarni import qilishni odat qilishgan edi. Ular o'zlarining faoliyatlarini amalga oshirish uchun pulga muhtoj edilar. Shuning uchun, ularga tovarlarni oldindan sotishga ruxsat berildi. Naqd pulni olganlaridan so'ng, ular faoliyatlarini osonlikcha amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lar edilar.

Salam shartnomasi Payg'ambarimiz (S.A.V.) tomonidan ruxsat etilganligini quyidagi hadisdan ham ko'rish mumkin: Makkadagi hijratdan so'ng, Payg'ambarimiz (S.A.V.) Madinaga kelganlarida, u yerda odamlar bir, ikki va uch yil ichida yetkazib berilishi kerak bo'lgan mevaning (xurmo) bahosini oldindan to'lashardi. Ammo, bunday sotuvlar tovarning sifati, o'lchami yoki vazni, shuningdek, yetkazib berish vaqti aniq belgilanishsiz amalga oshirilgan edi. Payg'ambarimiz (S.A.V.) shunday deb buyurganlar: "Kim oldindan mahsulot uchun pul to'lasa

(keyinchalik yetkazib berilishi uchun), u holda to'lov aniq sifat, belgilangan o'lcham, vazn, narx va yetkazib berish vaqti belgilangan bo'lishi kerak".

Salam bitimining bir qator shartlari mavjud bo'lib, unga amal qilinishi shart hisoblanadi.

1. Salam bitimi tuzilishi bilan, xaridor to'lovni amalga oshirishi lozim. Agar xaridor to'lovni to'liq, vaqtida qilmasa, qarzga qarz sotish bilan tenglashtiriladi.

2. Salam bitimidagi mahsulotlarning sifati va miqdori aniq belgilangan bo'lishi kerak. Sifat va miqdori aniq belgilanmagan narsalar salam shartnomasi orqali sotilmaydi. Masalan, qimmatbaho toshlar bir-biridan sifat va miqdor jihatidan farq qilishi sababli, salam orqali sotilmaydi.

3. Salam bitimidagi mahsulotning sifati, xususiyati, miqdori, o'lchami ya'ni tovar borasidagi barcha tafsilotlar shartnomada aniq ko'rsatilishi lozim, toki tomonlar o'rtasida nizo va noaniqliklar yuzaga kelmasin.

4. Salamdagi savdo molining miqdorini o'lchashda aniq kelishilgan o'lcham va vazn birliklarida bo'lishi, shuningdek, bozorda mavjud bo'lishi kerak;

5. Salamda sotuvchi tomonidan yetkazib berilishi talab etilgan mahsulotning yetkazib berish sanasi ya'ni vaqti va joyi avvaldan kelishilgan bo'lishi darkor;

6. Salam bitimida mahsulot xaridorga yetkazib berilgunga qadar ya'ni xaridorning egaligiga o'tgungacha bo'lgan davrda uchinchi shaxsga sotilishi ta'qiqlanadi, lekin parallel salam orqali amalga oshirish mumkin. Parallel salamda birinchi salamdagi xaridor sifatida ishtirok etgan tashkilot xuddi shu mahsulotni, xuddi shu sana bilan boshqa bir uchinchi tomonga sotish jarayonidir, endi bunda tashkilot sotuvchi vazifasini bajaradi.

Yuqorida keltirilgan Salam shartnomasi shartlarini to'liq yoritishni maqsad qildik, unga ko'ra, mahsulotni yetkazib berish muddati bir yildan uch yilgacha belgilanib, oldindan olingan mablag'lar yerni yaxshilash, urug'lik, o'g'itlar sotib olish, bog'larni o'stirish kabilarga sarflanar edi. Salamda sotuvchi kelishilgan shartlarga binoan tovarni yetkazib berishga majbur bo'lib, xaridor, sotuvchiga tovar uchun to'lovni amalga oshirganidan keyin, shartnoma shartlarini o'zgartira olmaydi (sifat, miqdor yoki yetkazib berish muddati bo'yicha). Biroq, ikkala tomonning roziligi bilan shartnomani o'zgartirishi mumkin.

Salam sotuvchi va xaridor uchun ham foydali bo'lib, sotuvchi, keyinchalik tovarni yetkazib berish majburiyatini olgan holda, oldindan kerakli mablag'ni olib, shaxsiy xarajatlar, ishlab chiqarish yoki savdo faoliyati uchun qoplashda foyda ko'radi. Xaridor esa o'zining rejalashtirgan tovarini belgilangan vaqtda olish imkoniyatiga ega bo'ladi. U shuningdek, odatda Salam narxi bozordagi hozirgi narxdan arzonroq bo'lishi sababli, arzon narxdan foyda ko'radi va bu orqali u narxlarning o'zgarishidan himoyalanaadi.

Salamda xaridor bitimni tuzgan vaqtda mahsulot uchun to'lovni oldindan va to'liq amalga oshirishi kerak. Fuqaholarning ko'pchiligi, xaridor bitimni imzolash vaqtida, ya'ni shu uchrashuvda, tovar uchun to'lovni to'lashini ta'kidlaydi. Ammo, bu borada Imom Molik to'lovni uch kungacha kechikishga ruxsat beradilar. Zamonaviy fuqaholar ham tomonlar o'rtasida salam shartnomasi qilingan bo'lsa, to'lovning ikki-uch kun kechiktirilishiga ruxsat berishadi.

Shuningdek, Salamda tovarlarning yetkazib berish muddati va joyi ham aniq kelishilishi lozim. Agar Salam shartnomasida yetkazib berish joyi belgilab qo'yilmagan bo'lsa, bitim tuzilgan joy tovarni yetkazib berish joyi sifatida qabul qilinadi. Yetkazib berishdan oldin tovar sotuvchining xavfida bo'ladi, yetkazib berilganidan so'ng, xavf xaridorga o'tadi. Shu sababdan ham islomiy shartnomalarning barchasida risk mavjudligi uchun ham halol hisoblanadi.

Ekin hosilga kirib, to uni xaridorga yetkazib berilgunga qadar mavjud bo'lgan risklarga, mahsulot nobut bo'lishi yoki kelishilgan vaqtda yetkazib berilmaslik holatlarini kiritish mumkin. Shu maqsadda, sotuvchining mahsulotni kelishilgan sanada yetkazib berishini ta'minlash maqsadida undan kafolat xati, ko'chmas mulk yoki garov ko'rinishida ta'minot talab qilishlari mumkin. Agar sotuvchi mahsulotni kelishilgan vaqtda yetkazib bermasa, garov sifatida olgan ko'chmas mulkni sotib, zarar qoplanilib, qolgan qism sotuvchiga qaytarib beriladi.

Shuningdek, belgilangan vaqtda mahsulot yetkazib berilmagan holatda fermerga nisbatan salam shartnomasida jazo ham nazarda tutilishi mumkin. Bunday holatlarda fermerga ma'lum bir kelishilgan stavka bo'yicha hisoblab chiqilgan penya to'lash majburiyati ko'rsatilishi mumkin. Bunday jarimalar bank yoki xaridorning daromadiga qo'shilmasdan xayriya maqsadlarida ishlatiladi.

AAOIFI ning Salam Standartining 5/7-bobida shunday deyiladi: "Salam tovarining yetkazib berilishidagi kechikish uchun jazo qo'yish ta'qiqlanadi". Agar jazo sifatida olinadigan jarimalar bankning (sotuvchining) daromadiga aylanishi mumkin emasligi alohida ta'kidlanadi. Salam bo'yicha qoidalarning 4 va 7-boblarida, agar sotuvchi o'z majburiyatini bajarmasa, mahsulotni yetkazib berish muddatini uzaytirilishi kerakligi keltirib o'tilgan.

Sotuvchi belgilangan xususiyatlarga ega tovarni o'z vaqtida va yetkazib berish joyida taqdim etadi va xaridor tovarni qabul qilib olganidan so'ng, ushbu tranzaksiya muvaffaqiyatli yakunlanadi.


Agar sotuvchi shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajara olmasa xususan, tovarni taqdim etmasa, kelishilgan sifatdagi yoki miqdordagi tovarni ishlab chiqarishga qodir emasligini aytsa, salam xaridori tovar mavjud bo'lishini kutishi, shartnomani bekor qilishi va tovar uchun oldindan qilingan to'lovni qaytarib olishi yoki o'zgartirish uchun o'zaro kelishuvga erishish va tegishli qoidalarga rioya qilish kabi tanlovlardan birini tanlashi lozim bo'ladi. Agar xaridor salam shartnomasini bekor qilmoqchi bo'lsa, xaridor faqat shartnoma paytida to'lagan narxni olish huquqiga ega. Xaridorning avansda to'lagan narxi sotuvchining qo'lida qarzga teng bo'lib, tovarlar yetkazib berilguncha butun davr davomida qarz hisoblanadi. Agar shartnoma bekor qilinsa, qarz miqdori hech qanday oshirish yoki kamaytirishsiz qaytarilishi kerak.

Shuningdek, sotuvchi xaridor bilan kelishilganidek tovarni taqdim etmasa, ya'ni past sifatdagi tovarni bersa, xaridor uni qabul qilishga majbur emas. Bunday holatlarda xaridorning oldida bir qator yechimlar bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Bank tovarni qabul qilishni rad etishi va kelishilgan tovarni taqdim etishni talab qilishi mumkin, yoki shartnomada to'langan narxni qaytarib olishi mumkin;

2. Agar sotuvchi kelishilgan tovarni taqdim eta olmasa, xaridor sotuvchidan boshqa tovarlarni taqdim etishni talab qilishi mumkin;

3. Agar sotuvchi kelishilgan tovarni faqat ma'lum bir qismini taqdim etsa, xaridor shu miqdorni qabul qilib, qolgan miqdor uchun xarid buyurtmasini yangilashi yoki tovarning qolgan qismi uchun to'lov miqdorini qaytarishini talab qilishi mumkin.



**1-rasm. Salam bitimini amalga oshirish chizmasi**

Yuqoridagi 1-rasm salam bitimini amalga oshirish sxemasi bo'lib, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Mijoz bankka murojaat qiladi va o'zining ma'lum bir mahsulotini joriy baho bo'yicha, ikkala tomon o'rtasida kelgusidagi sanada yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuziladi;

2. Sotuvchi va bank o'rtasida tuzilgan bitimga ko'ra bank mahsulot uchun oldindan to'lovni amalga oshiradi;

3. Tomonlar o'rtasida belgilangan muddatda dehqon salam bitimi bo'yicha mahsulotni bankka yetkazib beradi;


4. Bank bozordagi vaziyat va holatlardan kelib chiqib, bozordagi baho bo'yicha mahsulot sotuvini amalga oshiradi yoki quyidagi variantlardan birini tanlashi mumkin:

- bank uchinchi tomon bilan parallel salam shartnomasini tuzib, to'liq to'lovni qabul qilish;
- uchinchi tomondan kelishilgan narxda sotib olish va'dasini olishi;
- sotuvchini o'z agenti sifatida tayinlab, tovarni uchinchi shaxsga sotishga ruxsat berish.

5. Bank mahsulotni sotadi, mahsulotning bozordagi bahosi va dehqon bilan tuzilgan bitimga asosan mahsulotga qo'yilgan baho o'rtasidagi farqda ifodalangan ma'lum foydaga ega bo'ladi.

Yuqoridagi amaliyotlar to'liq bajarilganidan so'ng, salam shartnomasi muvaffaqiyatli oshirilgan hisoblanadi. Shundan so'ng, salam orqali sotib olingan tovarlarni bankning o'zi tovarlarni bozorga olib chiqib sotishi, Parallel salam shartnomasini tuzish yoki uchinchi tomon yoki sotuvchi bilan agentlik shartnomasini tuzish mumkin.

Ko'p holatlarda, sotuvchilar tovarni parallel salam orqali sotadilar. Biroq, salam asosida sotilgan tovar salam sotuvchisiga qaytarib sotilmaydi. Shuning uchun, Parallel Salam asl sotuvchi bilan tuzilishi mumkin emas. Parallel salam orqali sotilgan mahsulotning yetkazib berish sanasi bir xil bo'ladi ya'ni bunda moliyaviy tashkilot dehqon bilan salam bitimini tuzadi va keyin yana bir boshqa xaridor bilan ham mahsulotni yetkazib berish bo'yicha parallel salam bitimiga kelishadi va endi bunda moliyaviy institut sotuvchi sifatida qatnashadi. Parallel salam muddati qisqaroq bo'lganligi sababli, narx birinchi tranzaksiya narxidan biroz yuqori bo'lishi mumkin va moliyaviy institutning foydasi esa dehqon bilan kelishgan baho hamda mahsulotning parallel salam asosida qayta sotilishi natijasida o'rtada yuzaga kelgan farq hisoblanadi (2-rasm).



**2-rasm. Salam va parallel salam amaliyoti**

Har bir shartnoma ya'ni salam va parallel salam shartnomalari bir biridan mustaqil bo'lishi kerak. Ular bir-biriga bog'langan bo'lmasligi kerak, ya'ni salamning huquq va majburiyatlari parallel salamning huquq va majburiyatlariga bog'liq bo'lmasligi, har bir shartnoma o'z mustaqil kuchiga ega bo'lishi va uning bajarilishi ikkinchi shartnomaga bog'liq bo'lmasligi talab etiladi.

Yana bir savdo shartnomalardan biri Istisno' bo'lib, bu bitim ham salam kabi Tovar mavjud bo'lmasdan oldin uning sotilishi amalga oshiriladigan maxsus turdagi savdodir. Istisno' shartnomasi shariat qoidalariga amal qilib, har qanday ma'n qilingan narsa mavjud emas.

**Istisno' va salam shartnomalaridagi o'xshash va farqli jihatlar**

<b>Salam va istisno' shartnomalaridagi o'xshash jihatlar</b>		
	<b>Salam shartnomasi</b>	<b>Istisno' shartnomasi</b>
1.	Islom iqtisodiyoti qoidalariga asoslanadi va shariat qonunlariga muvofiq faoliyat olib boradi.	Islom iqtisodiyoti qoidalariga asoslanadi va shariat qonunlariga muvofiq faoliyat olib boradi.
2.	Tovar yoki xizmat turi, yetkazib berish vaqti, narxi aniq belgilangan bo'lishi kerak.	Tovar yoki xizmat turi, yetkazib berish vaqti, narxi aniq belgilangan bo'lishi kerak.
3.	Bitimlar shaffof, adolatli va to'g'ri amalga oshirilishi kerak.	Bitimlar shaffof, adolatli va to'g'ri amalga oshirilishi kerak.
<b>Salam va istisno' shartnomalaridagi farqli jihatlar</b>		
1.	Salam shartnomasining obyektini sifatida, dehqonchilik mahsulotlari, ishlab chiqarilgan tovarlar bo'lishi mumkin.	Istisno shartnomasining obyektini esa ishlab chiqarilgan tovarlar, xususan, yirik infratuzilma loyihalari, qurilish ishlari va b.
2.	Salamda tovar uchun to'lov to'liq oldindan amalga oshiriladi.	Istisno'da esa, to'lovni bosqichma-bosqich amalga oshirish mumkin.
3.	Salam majburiyatni o'z ichiga olgan shartnomadir; bir marta tuzilganidan so'ng, boshqa tomonning roziligisiz bekor qilinishi mumkin emas.	Istisno'da esa faoliyat boshlanmagan bo'lsa, shartnoma majburiyatlari yo'q, tomonlar har biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.
4.	Salamda tovarni yetkazib berishda kechikishlar bo'lsa, jarimalar undiriladi va ushbu jarimalar xayriya maqsadlari uchun ishlatiladi.	Istisno'da esa kechikishlar bo'lsa, istisno' obyektining narxi kamaytirilib, ushbu kamaytirilgan narx jazo sifatida ko'rib, xaridorning daromadini aks ettiradi.

Mashhur zamonaviy fiqhshunos olim Zuhayli istisno' bitimi haqida shunday yozadi: "Istisno' islomiy fiqhga tarixan qo'l mehnati, charm mahsulotlari, poyabzal, dastgohlar kabi sohalarda aniq ehtiyojlar tufayli kirib kelgan. Ammo, zamonaviy davrda u katta infratuzilma va sanoat loyihalarini, masalan, kemalar, samalyotlar va boshqa katta mexanizmlar qurilishi kabi loyihalarni amalga oshirish imkonini beruvchi shartnomalardan biriga aylandi. Shunday qilib, ishlab chiqarish buyurtmasi shartnomasining ahamiyati moliyalashtirilgan loyihalar hajmi bilan oshdi".


Istisno' bitimi haqiqatdan ham yuridik jihatdan to'g'ri shartnoma va odatiy tijorat amaliyotidir. Istisno' kelishilgan narxda sotuvni amalga oshiradigan va kelajakda yetkazib berish uchun biror narsani ishlab chiqarish, yig'ish yoki qurish (yoki shunday qilishni ta'minlash) buyurtmasi beriladigan kelishuvdir. Bu ishlab chiqaruvchi yoki quruvchining kelishilgan xususiyatlar bo'yicha va kelishilgan vaqt oralig'ida aktivni yetkazib berish majburiyatini yuzaga keltiradi.

Istisno'da tomonlardan biri shartnomani bekor qilmoqchi bo'lsa, bu haqida boshqa tomonga xabar qiladi, faqat ishlab chiqaruvchi ishni boshlaganidan keyin, shartnoma bir tomondan bekor qilinishi mumkin emas ya'ni shartnoma faoliyat boshlanmasidan bekor qilinishi lozim.

3-rasmda uchta shartnomani o'z ichiga olgan mushoraka-istisno'-ijaraga asoslangan infratuzilma Davlat xususiy sheriklik (DXSH) loyahasini moliyalashtirish tuzilmasi va bosqichlari namunasi muallif tomonidan shakllantirilgan.

Mushoraka hamkorlari (loyiha kompaniyasi va islom moliyachilari) istisno' va ijara shartnomasini tuzadilar, unga ko'ra loyiha kompaniyasi (sotuvchi sifatida) istisno' aktivlarini sotib olishga va qurilish tugallangandan so'ng mushoraka shartnomasidagi sheriklari (xaridor sifatida)ga yetkazib berishga rozi bo'ladi. Mushoraka sheriklari (xaridor sifatida) muhandislik, xaridor va qurilish (MHQ) shartnomasi bo'yicha kelishilgan to'lov shartlariga muvofiq loyiha kompaniyasi (sotuvchi sifatida) ga tegishli mushoraka hissalarini to'lash majburiyatini oladilar.





**3-rasm. Mushoraka-Istisno'-Ijaraga asoslangan infratuzilma DXSh loyihagini moliyalashtirish tuzilmasi va bosqichlari namunasi**

Mushoraka boshqaruvchisi loyihaning mushoraka biznes rejasiga muvofiq loyiha xarajatlarning taxminiy parametrlari doirasida amalga oshirilishini ta'minlaydi. Moliyaviy hujjatlarda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, islomiy moliyachilar loyihaning taxminiy xarajatlari biron-bir o'sish bo'lsa, mushorakaga o'z hissalarini oshirishga majbur bo'lmaydilar va loyiha kompaniyasi bunday ortiqcha xarajatlarni qoplaydi.

Islomiy moliyachilar mushorakadagi o'zlarining bo'linmagan ulushlarini forvard ijara shartnomasini tuzish orqali loyiha kompaniyasiga ijaraga berishadi. Ushbu shartnoma loyiha kompaniyasining qurilish vaqtida islom moliyachilariga ijara haqini oldindan to'lashi haqidagi qoidalarni mushoraka shartnomasi amalga oshirilayotgan davrda amalga oshiriladi.

### Xulosa va takliflar.

Olib borgan tadqiqotimiz natijalariga ko'ra xulosa yasaydigan bo'lsak, salam va istisno' shartnomalari moslashuvchan hisoblanadi. Salam fermer va dehqonlarning barcha toifalarini, shuningdek, jamiyatdagi hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi. Salam shartnomasi fermer uchun ham, islom banki va xaridor uchun ham foydali va manfaatli hisoblanadi. Negaki, dehqon oilasini boqishi, mahsulot yetishtirishi uchun urug', uskuna shunga o'xshash narsalarni sotib olish uchun tovar narxini oldindan oladi va yuqoridagi ehtiyojlarini qondirish uchun sarmoyaga ega bo'ladi. Bank esa ma'lum mahsulotni bozordagi narxdan ko'ra dehqondan arzonroqqa sotib olishi mumkin. Parallel salamda bank qayta mahsulotni xaridorga ma'lum miqdorda ustama qo'shib, sotishi mumkin va buning natijasida bank foydaga ega bo'ladi.

Istisno' esa ishlab chiqarish yoki qurilish uchun oldindan buyurtma beriladigan va kelajakda belgilangan shartlar asosida yetkazib beriladigan tovarlar yoki xizmatlar bo'yicha bitim hisoblanib, Islomiy moliya tizimidagi ahamiyati katta, chunki u savdo va investitsiya faoliyatida muhim vosita sifatida ishlatiladi. Bu shartnoma moliyaviy likvidlikni oshiradi, ishlab chiqarish va qurilish sohalarida katta loyihalarni moliyalashtirish imkonini beradi.

Ko'plab mamlakatlar yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda istisno' shartnomasidan foydalanishadi, chunki ushbu bitim resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi. Istisno' shariat qoidalariga muvofiq faoliyat olib borib, unda ko'rsatilgan shartlar va kelishuvlar, savdogarlarning foydasini himoya qiladi hamda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

Shuningdek, Istisno shartnomasi tovar yoki xizmat ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlarni oldindan belgilash va to'lovni oldindan amalga oshirish natijasida moliyaviy jarayonlarni soddalashtiradi, tomonlar o'rtasida risklarni teng taqsimlaydi.

Eng asosiysi, Istisno shartnomasining shartlari aniq va tomonlarga batafsil yoritib berilgan bo'lib, barcha tomonlarning huquq va majburiyatlari oldindan belgilangan bo'ladi. Bu shartnoma yuqori darajadagi ishonchlilikni ta'minlaydi va har bir tomonning manfaatlarini himoya qiladi.

### **Adabiyotlar/ Jumepamypa/ Reference:**

Abdul Karim (2018) "The Role of Islamic Finance in Achieving Financial Stability in Developing Economies", *Journal of Islamic Economics, Banking and Finance*.

Amine, M.B. (2008). *Risk management in Islamic finance: an analysis of derivatives instruments in commodity markets*. Leiden: Brill, Netherlands, 337.

Ashraf Ali Tahonaviy, "Imdadul fatavo" 3-jild.

Baydaulet, E.A., (2019), *Islomiy moliya asoslari [Matn] / E.A. Baydaulet. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, – 432 b.*

Fahim Khan M. (2003) "Islamic Banking: Theories and Practices", Nashr: Oxford University Press.

Irgasheva G.S., (2024) *Islom iqtisodiyotida investitsiyalar: ularning tashkiliy va boshqaruv tizimi hamda amalda qo'llash tamoyillari, "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" jurnali, №1 (yanvar oyi), [www.e-itt.uz](http://www.e-itt.uz).*

Irgasheva G.S., Zayniddinov R.X. (2024) *Ijara (islomiy lizing) va an'anaviy lizingning qiyosiy tahlili. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali 2 son - fevral, [www.e-itt.uz](http://www.e-itt.uz).*

Mohammed Imad Ali, Ikramur Rahman Falahi. (2014) *Islamic banking and finance: principles and practices // Marifa Academy Private Limited, 242 p.;*

Monzer Kahf (2009) "Financial Contracts, Risk, and Performance: Islamic Finance Perspectives", Nashr: Islamic Economics Institute

Muhammad Ayub (2007) *Understanding Islamic Finance*. John Wiley & Sons, Ltd, The Artrium, Southern Gate, Chichester, West Sussex PO19 8 SQ, England, 24.

Sahih Bukhari. (1979). *Muhammad Muhsin Khan (trans)*. Lahore, Pakistan: Qazi Publication. (al-Buxoriy, 2240 va Muslim, 1604).

Usmani Muhammad Taqi, (2011), *An Introduction to Islamic Finance*. 169 pages;

Zaabi, S.O. (2010) *Salam Contract in Islamic Law: A Survey, Review of Islamic Economics*, Vol. 14, No. 2.

Zayniddinov R. (2023) *An empirical investigation of the relationship between Islamic finance, FDI, and economic development in Malaysia. Conference: International scientific-practical conference titled Islamic investment products: characteristics and development PROSPECTS. Tashkent State Law University, May 31.*

Zayniddinov R.X. (2023). *O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik (DXSH) loyihalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish. 1401-1410 betlar. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>. 2023-yil, dekabr. No 11-12-sonlar.*